

Abdulhafiz Jalolov (1947-2019)



Abdulhafiz Jalolov (1947-2019)



Abdulhafiz Jalolov 1947 yilda Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanida, Birlashgan qishlog'ida tug'ilgandi. 1969 yili Toshkent davlat universitetini tamomlagan. 1976 yilda falsafa fani bo'yicha nomzodlik, 1992 yili doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan.

Falsafa va siyosatshunoslik bo'yicha 450 dan ortiq ish, jumladan, «Inson omili: falsafa, mafkura, siyosat», «O'zbekiston: mustaqillik, man'naviyat, mafkura», «Mustaqillik mas'uliyati», «Istiqlol ufqlari» kabi monografiyalar mualifi bo'lgan. Ilmiy ishlari AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlarda chop etilgan.

1971 yildan e'tiboran ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan. ToshDU falsafa kafedrasи o'qituvchiligidan Falsafa va huquq instituti direktorligigacha (1993 yildan) bo'lgan yo'lni bosib o'tgan. 1994 yilda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashi birinchi kotibi etib saylangan.

2000 yil yanvarida bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida Islom Karimovga yagona muqobil raqib bo'lgan.

2001 yilda Falsafa va huquq instituti direktorligi, 2003 yilda XDP Markaziy kengashi birinchi kotibligidan ozod etilgan.